# XORAZM VILOYATI
# STATISTIKA BOSHQARMASI

## 2022- yil uchun Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

**YAHM hajmi,** ***mlrd. so‘m***

**31 963,1**

**YAHM o‘sish sur’ati**

**105,7 %**

**YAHM deflyator indeksi**

**114,3 %**




Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yil uchun Xorazm viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 31 963,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 114,3 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo‘shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.

## 2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2021- yil*** | ***2022- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **26 464,3** | **31 963,1** | **105,7** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 25 575,3 | 30 895,7 | 105,5 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 889,0 | 1 067,4 | 111,3 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **25 575,3** | **30 895,7** | **105,5** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **11 789,7** | **14 212,1** | **103,3** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **5 150,7** | **6 553,8** | **110,5** |
| sanoat | 3 325,8 | 4 436,7 | 115,1 |
| qurilish | 1 824,9 | 2 117,1 | 102,1 |
| **xizmatlar** | **8 634,9** | **10 129,8** | **105,4** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 359,5 | 1 636,2 | 106,6 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 427,0 | 1 703,6 | 113,3 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 5 848,4 | 6 790,0 | 103,2 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 465,7 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming so‘mda)*




**Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*










## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2021- yil* | *2022- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 96,6 | 96,7 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,4 | 3,3 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **46,1** | **46,0** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **20,1** | **21,3** |
| sanoat | 13,0 | 14,4 |
| qurilish | 7,1 | 6,9 |
| **xizmatlar** | **33,8** | **32,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 5,3 | 5,3 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,6 | 5,5 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 22,9 | 21,9 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

**2021- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | 46,1% |
| *Sanoat* | 13,0% |
| *Qurilish* | 7,1% |
| *Xizmatlar* | 33,8% |

**2022- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | 46,0% |
| *Sanoat* | 14,4% |
| *Qurilish* | 6,9% |
| *Xizmatlar* | 32,7% |

***Yalpi qo‘shilgan qiymat***

***Mahsulotlarga sof soliqlar***

2022- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 46,0 % ni, sanoat tarmog‘i 14,4 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 32,7 % ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022- yil uchun YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi** *(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,5 f.p. (2021- yilda – 1,5 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,9 f.p. (2021- yilda – 2,0 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,2 f.p. (2021- yilda – 1,8 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 1,7 f.p. (2021- yilda – 2,5 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilda – 0,3 f.p.)ga ko‘paydi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| YAHM | 8,1 | 5,7 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3,3 | 3,3 |
| Sanoat | 17,2 | 15,1 |
| Qurilish | 30,9 | 2,1 |
| Xizmatlar | 7,5 | 5,4 |

2022- yil uchun YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 46,0 %), sanoatda – 115,1 % (14,4 %), qurilishda – 102,1 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 105,4 % ni (32,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 106,6 % (5,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,3 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,2 % dan (21,9 %) iborat bo‘ldi.



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

2022- yilning YAHM deflyatori indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 114,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari sanoatda – 115,9 % va qurilish tarmog’ida – 113,6 % qayd etildi.


















# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan %da)*

| | mlrd.so‘m | ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2021- yil | 18 858,8 | 73,7 |
| 2022- yil | 22 119, 6 | 71,6 |



2022- yilda kichik tadbirkorlik 22 119,6 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021- yilda – 18 858,8 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 71,6 %ni tashkil qildi (2021- yilda – 73,7 %).

Kichik tadbirkorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

